

**SABZAVOT, POLIZ EKINLARI VA KARTOSHKACHILIK ILMIY-
TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI QISHLOQ XO‘JALIGI
FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) ILMIY DARAJASINI
BERUVCHI PhD.05/30.09.2022.Qx.152.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETINING
TOSHKENT FILIALI**

ERKAYEVA SAODAT ABDINAYIMOVNA

**SOYANING INTRODUKSIYA QILINGAN NAV NAMUNALARI ASOSIDA
YUQORI HOSILDOR, KASALLIK VA ZARARKUNANDALARGA
BARDOSHLI TIZMALAR YARATISH**

06.01.05 – Seleksiya va urug‘chilik

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2025

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
сельскохозяйственным наукам**

**Sontents of the dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
agricultural sciences**

Erkayeva Saodat Abdinayimovna

Soyaning introduksiya qilingan nav namunalari asosida yuqori hosildor, kasallik va zararkunandalarga bardoshli tizmalar yaratish3

Erkayeva Saodat Abdinayimovna

Создание высокоурожайных, толерантных к болезням и вредителям линий на основе интродуцированных сортообразцов сои21

Erkaeva Saodat Abdinayimovna

Development of high-yielding, disease- and pest-tolerant lines based on introduced soybean varieties39

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works43

**SABZAVOT, POLIZ EKINLARI VA KARTOSHKACHILIK ILMIY-
TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI QISHLOQ XO‘JALIGI
FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) ILMIY DARAJASINI
BERUVCHI PhD.05/30.09.2022.Qx.152.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETINING
TOSHKENT FILIALI**

ERKAYEVA SAODAT ABDINAYIMOVNA

**SOYANING INTRODUKSIYA QILINGAN NAV NAMUNALARI ASOSIDA
YUQORI HOSILDOR, KASALLIK VA ZARARKUNANDALARGA
BARDOSHLI TIZMALAR YARATISH**

06.01.05 – Seleksiya va urug‘chilik

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2025.2.PhD/Qx11677 raqam bilan ro‘yxatga olingan

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filialida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliztilida (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.sabzavotilm.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Xolmurodova Go‘zal Ro‘ziyevna** qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Ibrohimov Bahodir Akmal o‘g‘li**
qishloq xo‘jaligi fanlari doktori (DSc), katta ilmiy xodim

Matniyazova Hilola Xudaybergenovana
biologiya fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot: **Don va dukkakli ekinlar ilmiy-tadqiqot instituti**

Dissertatsiya himoyasi Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.05/30.09.2022.Qx.152.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «27» oktyabr, soat16:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 111106, Toshkent viloyati, Toshkent tumani, Ko‘ksaroy a/b SPEvaKITI. Tel: (+99871) 226-85-03; faks:(+99871) 226-85-03; e-mail: savzavot_info@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№7/2025-raqami bilan ro‘yxatga olingan (Manzil: 111106, Toshkent viloyati, Toshkent tumani, Ko‘ksaroy a/b SPEvaKITI. Tel:(+99871) 226-85-03;

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «__» _____ kuni tarqatildi.

(2025 yil «__» _____dagi _____ -raqamli reyestr bayonnomasi).

R.A.Nizomov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi, q.x.f.d., professor

F.F.Rasulov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, q.x.f.f.d., katta ilmiy xodim

A.J.Shokirov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, q.x.f.d., dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Dunyo bo‘ylab soya (*Glycine max*) o‘simligi yil sayin o‘sib borayotgan muhim qishloq xo‘jaligi ekini hisoblanadi. U nafaqat oziq-ovqat, balki sanoat, yem-xashak va biokimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarishda ham keng qo‘llaniladi. 2024-yilgi ma‘lumotlarga ko‘ra, dunyo bo‘yicha soya yetishtirish maydoni taxminan 120 million gektarni tashkil etib, va eng katta ishlab chiqaruvchilar - Braziliya, AQSH va Argentina hisoblanadi¹. Biroq, soya ekinlari har yili iqlim o‘zgarishi, kasalliklar va zararli organizmlar ta‘sirida sezilarli darajada zarar ko‘rmoqda. Misol uchun, soya novdalari uchun eng xavfli kasalliklardan biri bo‘lgan soya mozaikasi virusi dunyo bo‘ylab katta iqtisodiy zarar keltirmoqda. Shu bilan birga, soya ekinlarini resurslarini samarali yetishtirish va hosildorligini yanada oshirish borasida yangi usullarni ishlab chiqish zarurati ortmoqda. Soya seleksiyasida zamonaviy yondashuvlar asosida qimmatli xo‘jalik belgilarga ega bo‘lgan otalik va onalik juftliklarini tanlash muhim ahamiyat kasb etadi. Soya seleksiyasida serhosil, oqsil va moy miqdori yuqori, kasalliklarga, stress omillarga bardoshli navlar yaratish hamda ulardan ishlab chiqarishda keng foydalanish dolzarb hisoblanadi.

Jahonda soya hosildorligini oshirish va kasalliklariga qarshi kurashish, oldini olish borasida yengish uchun ko‘plab ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bunga misol sifatida biofortifikatsiya, genetik modifikatsiya va seleksiya metodlari ko‘rsatish mumkin. Ko‘pgina tadqiqotlar soya tarkibidagi metal moddalar (temir, rux, kalsiy) miqdorini oshirish, shuningdek, kasalliklarga chidamli navlarini yaratishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan. Jumladan, Yaponiyada, Braziliyada va AQShda soya navlarini iqlim o‘zgarishiga moslashtirish bo‘yicha intensiv seleksiya ishlari amalga oshirilmoqda. Shuningdek, yangi biotexnologik yondashuvlar, masalan, CRISPR texnologiyasi orqali soya o‘simliklarini hosildorligi, kasallik va zararkunandalarga chidamliligini oshirishga qaratilgan tadqiqotlar olib borilmoqda. Seleksioner olimlar tomonidan plastik navlar yaratilishida tabiatda mavjud shakllarning noyob belgi va xususiyatlariga ko‘ra tanlab, seleksiya jarayoniga jalb qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonda soya ekinlari maydonlarini kengaytirish, hosildorligini oshirish bo‘yicha olib borilayotgan ilmiy-tadqiqotlar, ayniqsa, soya navlarini seleksiya qilish va yuqori hosil olishga qaratilgan. Respublikada soya ekinlari hali to‘liq yetishtirilmayapti, ammo oxirgi yillarda soyaning agronomik va iqtisodiy jihatlari yuzasidan bir qancha tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekistonning iqlim sharoitlari va agronomik imkoniyatlariga mos soya navlarini yaratish bo‘yicha tadqiqotlar muhim ahamiyatga ega. Bunda soyaning kasalliklarga chidamli va yuqori hosildor navlarini yaratish ustuvor vazifalardan biridir. Shu bilan birga, soya ekinlarini rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan ilmiy va texnikaviy infratuzilma, shuningdek, agronomik bilimlarni amaliyotga joriy etish masalalari ham dolzarb bo‘lib qolmoqda. Respublikada soya ekinlari bo‘yicha yirik ilmiy markazlar va

¹<https://worldpopulationreview.com/country-rankings/soybean-production-by-country>

institutlar faoliyat ko'rsatadi, ammo ularning resurslari va metodologik yondashuvlarini takomillashtirish lozim. Soya navlari bo'yicha yangi texnologiyalar va seleksiya usullarini joriy etishga qaratilgan tadbirlar, kasallik va zararkunandalarga chidamli, yuqori hosildor va biofortifikatsiyalangan navlarni yaratish uchun ilmiy-tadqiqot ishlarini yanada kuchaytirish zarurati mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktabrdagi PF-5853-son "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonida "mahalliy tuproq-iqlim va ekologik sharoitlariga moslashgan qishloq xo'jalik ekinlarining yangi seleksion navlarini yaratish" vazifalari belgilab berilgan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, soyaning introduksiya qilingan nav namunalari orasidan maqbullarini tanlash va ulardan boshlang'ich ashyo sifatida foydalanib, seleksiya usullarini qo'llagan holda muayyan tuproq-iqlim sharoitiga mos navlarni yaratishga qaratilgan izlanishlar dolzarb hisoblanadi. O'zbekiston hukumati soya ekinlarini rivojlantirish bo'yicha bir qator qaror va farmonlar qabul qilgan. Jumladan, "O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasi"da soya ekinlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 14 martdagi PQ-2832-son "2017–2021 yillarda respublikada soya ekini ekishni va soya doni yetishtirishni ko'paytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida dukkakli ekinlar seleksiyasi, urug'chilik va yetishtirish tizimini rivojlantirish to'g'risida" 28 yanvar 2023 yil PQ–45-son qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu mavzu yuzasidan bajariladigan dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. "Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Soya ekinini iqlim o'zgarishiga moslashtirish va kasalliklarga chidamli navlar yaratish bo'yicha muhim natijalarga erishishganligi, soya hosilini yaxshilash uchun o'simliklarning genetik jihatdan o'zgartirishlar kiritishning samaradorligi borasida G.Li, X. Wu, J.Kim, B.Chang, D.O'Neill va M. Howard, M.Garcia, S.Torres ishlarida, mamlakatimizda soya ekinlarining agronomik xususiyatlari va kasalliklarga chidamli navlarini yaratish bo'yicha izlanishlar olib borilib, soyaning biologik va ekologik xususiyatlarini tahlil qilish va iqlim sharoitlariga mos navlar yaratish bo'yicha A. Abdurahmanov, M. Tursunov va A. Rustamov, B. Yusupov va boshqa xorijiy olimlar ishlarida yoritilgan. Soya belgilarining irsiylanish xususiyatlari, soya germoplazmasidan chatishtirishda foydalanishni YE.S.Butovets, YE.A.Vasina, L.M.Lukyanchuk, M.A.Litarnaya o'rganganlar. Genetik o'zgaruvchanlikni yaratishning samarali sun'iy duragaylash usulini qo'llash orqali ko'plab boshlang'ich manbalar yaratish imkonini M.N.Shapturenko, L.V.Xotileva tadqiqotlarida ko'rsatib berilgan.

Biroq, soya ekinining seleksiyasi va urug'chiligi borasidagi tadqiqotlarda, introduksiya qilingan shakllari va seleksiyaning usullaridan foydalanib, hosildorligi,

oqsil va moy miqdori yuqori, dukkagi chatnab ketmaydigan, mexanizatsiyaga yaroqli, navlarni tanlash va yaratish, seleksion istiqbolli boshlang'ich ashyolar yaratish borasidagi tadqiqotlar yetarli darajada olib borilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalari universiteti Toshkent filialiining (2021-2025 yy.) ilmiy tadqiqot ishlarining rejasiga kiritilgan bo'lib, "Soyaning introduksiya qilingan shakllaridan foydalanib, seleksion ashyolar yaratish" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi introduksiya qilingan nav namunalariidan foydalangan holda yuqori hosildor, kasallik va zararkunandalarga bardoshli seleksion tizmalarni yaratish va ularning qimmatli xo'jalik belgilari bo'yicha baholashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

Soyani Rossiyaning Krasnodardan introduksiya qilingan nav namunalari hamda mamlakatimiz navlarida morfo-xo'jalik belgilari, biometrik ko'rsatkichlari bo'yicha baholash;

introduksiya qilingan hamda respublikamiz navlari asosidagi oilalarda hosildorlik ko'rsatkichlarini aniqlash hamda ayrim kasallik va zararkunandalariga bardoshlilik darajasini baholash;

introduksiya qilingan soya nav namunalari, mahalliy navlar hamda ular asosidagi oilalarning biokimyoviy tahlil qilish hamda introduksiya qilingan soya nav namunalariining morfologik belgilari bo'yicha klasterlarga ajralishini aniqlash va elektroforez tahlillari bo'yicha baholash;

soya oilalarining ayrim qimmatli xo'jalik belgilari orasidagi korrelyativ bog'liqliklarni tahlil qilish;

soyaning introduksiya qilingan nav-namunalari asosida juft duragaylash usulida olingan oilalar va yaratilgan tizmalarini qimmatli-xo'jalik belgilari bo'yicha barqarorlashuvini meyoriga yetkazish;

soyaning hosildorligi, oqsil va moy miqdori yuqori, dukkagi chatnab ketmaydigan, mexanizatsiyaga moslashgan yangi tizmalarining original urug'larini ko'paytirish.

Tadqiqotning obykti sifatida introduksiya qilingan Rossiyaning Krasnodar seleksiyasiga mansub nav namunalari - Arleta, Selekt 201, Selekt 302, Liniya, mahalliy navlardan Nafis, Baraka, Madina, Parvoz navlari asosidagi oilalardan, andoza nav sifatida Orzu navlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning predmeti soyaning introduksiya qilingan nav namunalari asosida olingan oilalarni qimmatli xo'jalik belgilarining o'zgaruvchanlik va shakllanish darajasi, korrelyativ bog'liqlik, oila va tizmalarda shakllanish xususiyatlarining tahlillari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya tadqiqotlarida laboratoriya, dala va ishlab chiqarish sinovi tajribalarini qo'yish, fenologik kuzatish hamda biometrik o'lchashlar o'tkazish «Dala tajribalarini o'tkazish usullari», Butun Rossiya O'simlikshunoslik ITI (VIR) uslubida, «Методика Государственного сортоиспытания сельскохозяйственных культур», «Методические указания по изучению коллекции зерновых бобовых культур» qo'llanmalari asosida, soya nav

namunalarini klasterlarga ajratish Rstudio kompyuter dasturi asosida, iqtisodiy ko'rsatkichlar V.N.Polohiy uslubida, tadqiqotlardan olingan ma'lumotlarning statistik tahlili Microsoft Excel dasturi yordamida B.A.Dospexovning "Методика полевого опыта" qo'llanmasi asosida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk marotaba Krasnodardan introduksiya qilingan soya nav namunolari mamlakatimiz navlarida morfo-xo'jalik belgilari, biometrik ko'rsatkichlari bo'yicha seleksion baholangan;

barqaror hosildorlikka ega va kasalliklarga chidamli tizmalar keyingi seleksiya ishlarida donorlar sifatida foydalanilishi tavsiya etilgan;

introduksiya qilingan soya nav namunalarini morfologik belgilar bo'yicha klasterlarga ajralishi va qimmatli xo'jalik belgilari bo'yicha elektroforez tahlillari asosida baholangan;

soya duragaylarida qimmatli xo'jalik belgilari orasidagi korrelyativ bog'liqliklarning tahlillari asosida yuqori avlodlarda shakllanish qonuniyatlari ilmiy asoslangan;

soya seleksiyasida yangi genotiplarni joriy etish orqali genetik bazani kengaytirish imkoni yaratilgan;

yuqori seleksion qiymatga ega bo'lgan ashyolarda belgilarning shakllanishini tahlil qilish va samarali tanlovlar natijasida soyaning barqaror genotipli hosildor, oqsil va moy miqdori yuqori, dukkagi chatnab ketmaydigan, mexanizatsiyaga moslashgan T-6, T-8 va T-10 tizmalari yaratilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

soyaning introduksiya qilingan nav namunalaridan olingan duragaylar asosida hosildorligi 30,4-35,1 s/ga, oqsil miqdori 41,2-41,8 % va moy miqdori 19,2-22,9 %, mexanizatsiyaga yaroqlilik bo'yicha ustun bo'lgan oilalar ajratib olingan va tizmalar yaratilgan;

yaratilgan yangi oila va tizmalar xo'jalik uchun qimmatli belgilarning yuqori majmuasi bo'yicha boshlang'ich ashyo sifatida amaliy seleksiya jarayoniga tavsiya etilgan;

juft duragaylash asosida yaratilgan, qimmatli xo'jalik belgilar majmuiga ega bo'lgan T-10 tizmasi Qishloq xo'jaligi ekinlari navlarini sinash markaziga sinash uchun topshirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi o'tkazilgan ko'p yillik dala tajribalarning metodik jihatdan to'g'ri o'tkazilganligi va aprobatsiya komissiyalari tomonidan yuqori baholanganligi, tadqiqotda dala tajribalari uslublaridan foydalanilgan holda olingan ma'lumotlarga ishlov berish, nazariy va amaliy natijalarning bir-biriga mos kelishi, tadqiqot natijalarining xorijiy va mahalliy tajribalar bilan solishtirilganligi, aniqlangan qonuniyatlar va xulosalar asoslanganligi va izlanishlar natijalari amaliyotda foydalanilganligi, tadqiqotlar natijalari respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilinganligi, dissertatsiya ishi natijalari Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan e'tirof etilgan yetakchi mahalliy ilmiy jurnallarda va impakt-faktori yuqori bo'lgan xorijiy jurnallarda chop etilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ilk bor O‘zbekiston sharoitida introduksiya qilingan soya nav namunalariidan foydalanilgan holda, ularning agrobiologik, qimmatli-xo‘jalik belgilari va ayrim kasallik va zararkunandalarga bardoshlilik xususiyatlarini o‘rganilishi, kasallik va zararkunandalarga bardoshli, yuqori hosildor oila va tizmalar yaratilishi, T-6, T-8 va T-10 tizmalarida oqsil va moy miqdori, vegetatsiya davrining mosligi, mexanik yig‘im-terimga yaroqlilik hamda barqarorlik kabi muhim belgilarni shakllanish qonuniyatlari aniqlanganligi, shuningdek, klaster tahlili va elektroforez usulida olingan natijalar asosida genotiplar o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlilik darajalari baholanganligi va seleksiya uchun qimmatli genotiplar ajratib olinganligi, bu esa soya seleksiyasi uchun ilmiy asoslangan yondashuvlarni takomillashtirish imkonini berishi bilan izohlanadi.

Tadqiqotlarning amaliy ahamiyati Olib borilgan tadqiqotlar natijasida introduksiya qilingan soya navlari asosida kasallik va zararkunandalarga bardoshli, yuqori hosildorlikka ega bo‘lgan T-6, T-8 va T-10 tizmalari yaratilganligi, ushbu tizmalarda xo‘jalik-qimmatli belgilarning majmui saqlangan va seleksiya jarayonidagi samarali tanlovlar natijasida qo‘llanilgan baholash mezonlari asosida seleksion materiallar turli agroekologik sharoitlarda sinovdan o‘tkazilganligi, yaratilgan tizmalarining yuqori seleksion qiymatga ega ekanligi ularni amaliyotga tadbiiq etilishi, yangi nav yaratish ishlarini jadallashtirish va mahalliy sharoitlarga mos, barqaror genotiplarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Soyaning introduksiya qilingan Krasnodar seleksiyasiga oid shakllar hamda mahalliy navlar asosida hosildorligi, oqsil miqdori yuqori hamda kasalliklarga bardoshli bo‘lgan yangi tizmalarini yaratish bo‘yicha olingan natijalar asosida:

Qimmatli xo‘jalik belgilari yuqori bo‘lgan T-10, T-6 va T-8 tizmalari O‘simliklar genetik resurslari ilmiy tadqiqot institutining genbank fondiga topshirilgan (Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025-yil 3-iyuldagi №05/04-04-350-son ma‘lumotnomasi). Natijada, genetik-seleksion izlanishlarda foydalanishda yangi donorlar yaratish uchun tadqiqotlarda keng miqyosda foydalanish imkonini, soyaning dunyoviy genofondini sifat ko‘rsatkichlari va hosildorlik elementlari yuqoriligi, kasallik va zararkunandalarga bardoshlilik bilan yanada boyitish imkonini bergan.

Krasnodar seleksiyasiga oid shakllar hamda mahalliy navlar asosidagi oilalardan T-10, T-6 va T-8 tizmalari yaratilgan (Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025-yil 3-iyuldagi №05/04-04-350-son ma‘lumotnomasi). Natijada, T-8 tizmasi donining maksimal hosildorligi 30,4 s/ga ni tashkil etib, andoza Orzu naviga nisbatan 3,4-5,4 s/ga yuqori vegetatsiya davri 115-116 kun, andoza Orzu naviga nisbatan 8-5 kunga tezipshar bo‘lganligi, pastki dukkaklarning joylashish balandligi 15,0-16,0 sm, mexanizatsiyaga moslashgani, oqsil miqdori 41,3 %, andoza nisbatan 3-3,5 % yuqori, moy miqdori 21,6 %, andoza navga nisbatan 3-3,7 % 1000 dona don vazni 160-170 g, dukkaklari chatnab ketmasligi aniqlangan. T-6 donining maksimal hosildorligi 33,1 s/ga, vegetatsiya davri 112-114 kun, pastki dukkaklar joylashish balandligi 13-14,0 sm, mexanizatsiyaga moslashgani, oqsil miqdori 41,2

%, moy miqdori 21,4 %, 1000 dona don vazni 160-170 g, andoza navdan 5-7 g ustun bo'lganligi aniqlangan.

Soyaning yangi yaratilgan T-6, T-8 tizmalari Qashqadaryo viloyati Koson tumani "Nur ko'zgu Omad" MCHJda 2024 yil 0,4 ga maydonda joriy etilgan (Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025-yil 3-iyuldagi №05/04-04-350-son ma'lumotnomasi). Natijada, T-6, T-8 tizmalaridan gektariga 30-33 sentner, vegetatsiya davri 114-115 kun, pastki dukkaklar joylashish balandligi 13-14,0 sm, mexanizatsiyaga moslashgani, oqsil miqdori 41,5 %, moy miqdori 21,4 %, 1000 dona don vazni 150-160 g bo'lganligi, dukkaklari chatnab ketmasligi aniqlangan. T-8 tizmasi donining maksimal hosildorligi 35,4 s/ga ni tashkil etadi, vegetatsiya davri 115-116 kun, pastki dukkaklarning joylashish balandligi 14,0-15,0 sm, mexanizatsiyaga moslashgani, oqsil miqdori 41,3 %, moy miqdori 21,6 %, 1000 dona don vazni 160-170 g fuzarioz, septorioz, bakterioz kasalliklariga hamda o'rgimchakkanaga bardoshlilikni aniqlangan. T-6 tizmasining maksimal don hosildorligi 33,5 s/ga, vegetatsiya davri 116-117 kun, pastki dukkaklar joylashish balandligi 14-15,0 sm, oqsil miqdori 41,0 %, moy miqdori 21,6 %, 1000 dona don vazni 140-160 grammga teng bo'lganligi aniqlangan. Natijada, ushbu tizmalardan yuqori va sifatli hosil olishga erishilgan.

Soyaning yangi T-10, T-6, T-8 tizmalari Qashqadaryo viloyati Koson tumani "Erqo'rg'on parrandachilik" MCHJ ekin maydonlarida ushbu tizmalar 0,4 ga maydonlarda ekilgan (Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025-yil 3-iyuldagi №05/04-04-350-son ma'lumotnomasi). Tizmalarining vegetatsiya davri o'rtacha 115-116 kun tashkil etib, andoza Orzu navidan 8-5 kunga tezpishar bo'lganligi, pastki dukkaklar joylashish balandligi 14-15,0 sm, mexanizatsiyaga moslashgan, 1000 dona don vazni 150-160 g, andozaga nisbatan 1,7 g - 8,1 g ustunlikni namoyon qilgan, dukkaklari chatnab ketmasligi aniqlangan, donining maksimal hosildorligi 35,5-38,0 s/ga, andoza navga nisbatan 3,4-5,4 s/ga yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishilgan.

Soyaning yangi yaratilgan "Madina" navining ekin maydonlarini kengaytirish uchun yetarli miqdordagi navdorligi yuqori bo'lgan original urug'liklari tayyorlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari har yili O'zQXIIICHM tomonidan aprobatsiyadan o'tkazilgan va ijobiy baholangan, hisobotlar institutning ilmiy va uslubiy kengashlarida muhokama qilingan. Mazkur tadqiqot natijalari 9 ta, jumladan 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 9 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 2 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya tarkibi kirish, oltita bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 108 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, maqsadi va vazifalari shakllantirilgan, obyekt va predmetlari ta'riflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqot usullari, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning ilmiy yangiligi bayon etilgan, izlanishlarning amaliy natijalari ochib berilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etilishi haqidagi ma'lumotlar keltirilgan, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya hajmi va tarkibi bayon etilgan.

Dissertatsiyaning «**Soyaning seleksiyadagi ahamiyati, erishilgan yutuqlar, istiqbollari**» deb nomlangan **birinchi bobida** dissertatsiya mavzusi yuzasidan respublikamiz va xorijiy davlatlar olimlarining seleksion jarayonlarda soyaning hosildorligi, tola va oqsil miqdori, hamda kasalliklarga (fuzarioz, bakterioz, peronosporoz va boshqalar) bardoshlilik belgilarini o'rganish ustuvor yo'nalish hisoblanishi, bu borada mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan yaratilgan genetik kolleksiyalar, duragaylar va navlar asosida seleksiya jarayonlari samarali tashkil etishi, aniqlangan immun va tolerant genotiplar soyani respublikamiz sharoitida ham keng tatbiq etish ahamiyati bo'yicha olingan ma'lumotlar sharhi keltirilgan. Keltirilgan adabiyotlar tahliliga ko'ra, soyaning turli agroekologik sharoitlardagi fiziologik va immunologik xususiyatlari, zamonaviy genetik va biotexnologik usullar yordamida olib borilayotgan seleksiya ishlari haqida ham yetarli ma'lumotlar mavjud bo'lib, bu kelgusi tadqiqotlar uchun nazariy va amaliy asos yaratish ustidagi ilmiy, amaliy ishlarni yanada mukammal tahlil qilib, davom ettirish bugungi kundagi muammolarning oldini olish uchun qulay imkoniyatlarni yaratadigan omilligini e'tiborga olgan holda, tadqiqotlari yanada kengroq doirada o'rganish ahamiyatligi haqida xulosaga kelingan.

Dissertatsiyaning «**Tadqiqot o'tkazilgan joy vatuproq-iqlim, manbai va uslublari**» deb nomlangan **ikkinchi bobida** tajribalar olib borilgan joy va uning sharoitlari, tadqiqot manbai, usullari, seleksion va statistik usullar to'g'risidagi ma'lumotlari bayon etilgan. Qo'llanilgan uslublarda tajribalarda foydalanilib, o'zini haqiqiylikni isbotlaganligi va tajribalarning barcha o'tkazilgan yillarida agrotexnika tadbirlari barqaror sharoitda bajarilib, aniq ma'lumotlarni olishga asos bo'lganligi yoritilgan. Olingan ma'lumotlar dispersion tahlildan o'tkazilib, variantlar orasidagi farqlar xaqiqiy bo'lib, shuning asosida boshqa tahlillar orqali yuqori ko'rsatkichli seleksion materiallar ajratib olinganligi keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Introduksiya qilingan soya nav namunalari, mahalliy navlar hamda ajratib olingan oilalarda olib borilgan tahlil natijalari**» deb nomlangan uchinchi bobida tadqiqotlar davomida introduksiya qilingan soya nav namunalari, respublikamiz navlari hamda ajratib olingan oilalarda fenologik kuzatuvlari, oilalarda biometrik va hosildorlik ko'rsatkichlari bo'yicha natijalari keltirilgan.

Tajribalarda Krasnodardan introduksiya qilingan soya kolleksiyasi nav namunalari fenologik kuzatuvlar tahliliga ko'ra, Arleta, Liniya va Seleкта 201 nav namunalari ertapishar, faqatgina Seleкта 302 o'rtapisharlikni namoyon qildi.

Ertapishar, o'rta-ertapishar va o'rtapishar nav namunalardan seleksiya jarayonlarida boshlang'ich ashyo sifatida foydalanish mumkin. Ushbu nav namunalarni asosiy va takroriy ekin sifatida respublikamiz ekin maydonlariga joriy qilish maqsadga muvofiq. Chunki soya tuproq unumdorligini oshiradi, saqlaydi va kelgusi yil ekiladigan ekinlarni ekologik sof azot bilan ta'minlaydi hamda ekologik toza mahsulot olishga erishiladi. Shuningdek, azotli o'g'itlar tejaladi, pirovardida harajatlar kamayadi. Soya kolleksiyasi nav namunalarining biometrik ko'rsatkichlariga nav xususiyatlari, tuproq-iqlim sharoiti va agrotexnologik tadbirlarni qo'llash sezilarli ta'sir qildi. Soya kolleksiyasi nav namunalarining vegetatsiya davri davomida bo'ylari o'sib, barg va yon shoxlar soni ortib borishi, dukkaklar to'lishib, soni ham oshib borishi kuzatildi.

Introduksiya qilingan soya kolleksiya nav namunalarining biometrik ko'rsatkichlari bo'yicha ertapishar Seleкта 201 va o'rtapishar Seleкта 302 nav namunalari tegishli ravishda bo'yining balandligi 80,0-90,0; 130,0-135,0 sm, barglar soni 32,0-36,0 dona, yon shoxlar soni 3,0-4,0 dona va dukkaklar soni 110,0-120,0 donani tashkil etib, ulardan seleksiya jarayonlarida boshlang'ich ashyo sifatida foydalanish maqsadga muvofiq.

Introduksiya qilingan Krasnodar seleksiyasiga mansub nav namunalarning barchasida pastki dukkaklar joylashuvi 13 sm dan 15 sm gacha bo'lishi mexanizatsiyaga yaroqliligidan dalolat beradi. Dukkaklar soni bo'yicha Seleкта 201, Seleкта 302, urug' soni bo'yicha Seleкта 201, Seleкта 302, 1000 dona urug' vazni bo'yicha Arleta, Seleкта 201, Seleкта 302 nav namunalaridan, yuqori hosildorlikka erishishda Seleкта-302, Madina navlaridan belgilarni yaxshilashda genetik-seleksion izlanishlarda boshlang'ich ashyo sifatida foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

1-jadval

O'rganilgan oilalarining hosildorlik ko'rsatkichlari (2022-2024 yy.)

Oilalar	Oilalarning kelib chiqishi	Bir tup o'simlikda				1000 dona urug' vazni, gramm	Hosildorlik, s/ga
		pastki dukkak joylashuvi, sm	dukkaklar soni, dona	urug' vazni, gramm	urug' soni, dona		
O-5/6	F4Baraka x Seleкта302	13,6	114,4	35,0	205,4	170,6	32,7
O-11/6	F4Madina x Seleкта 302	15	110	21,8	208	200	32,5
O-3/6	F4Nafis x Seleкта 302	15	135	20,5	242	190	33,1
O-2/6	F4Parvoz x Seleкта 302	12,6	95,6	27,5	172,0	160,0	32,8
O-17/20	F4Liniya x Seleкта 302	12,1	83,1	25,3	149,3	170,5	31,9
O-7/6	F4Arleta x Seleкта 302	12,3	105,0	19,9	189,0	110,1	28,9
Orzu		16	85	16,0	160,0	160	28,3
EKMF _{0,5} =		1,2	1,3	1,5	1,6	1,4	1,8

Ajratib olingan soya oilalarining hosildorlikning barcha komponentlari bo'yicha ota-ona genotiplariga nisbatan yuqori ustunlik qayd etilib, ulardan yuqoridagi belgilarni yaxshilashda boshlang'ich ashyolar sifatida foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. 1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, bir tup o'simlikdagi pastki dukkaklar joylashuvi ajratib olingan oilalarda 12,6 sm (O-2/6) dan 15 sm (O-11/6, O-3/6) gacha bo'lib, andoza Orzu navida ushbu ko'rsatkich 16 sm ni tashkil etdi.

Bir tup o'simlikdagi dukkaklar soni esa 95,6 dona (O-2/6) dan 114,4 dona (O-5/6) gacha bo'lib, andoza navda ushbu ko'rsatkich 85 donani tashkil etdi. Bir tup o'simlikdagi urug' vazni ham hosildorlikning asosiy komponentlaridan hisoblanib, ajratib olingan oilalarda ushbu ko'rsatkich 172 dona (O-2/6) dan 242 dona (O-3/6) gacha, andoza navda 160 dona bo'lganligi qayd etildi.

1000 dona urug' vazni 160 gramm (O-2/6) dan 200 gramm (O-11/6) gachani tashkil etib, andoza navda ham 160 grammga teng bo'lgan ko'rsatkich namoyon bo'ldi. Hosildorlik ajratib olingan barcha oilalarda yuqori bo'lib, 32,5 s/ga (O-11/6) dan 33,1 s/ga (O-3/6) gacha bo'lganligi, andoza navda ushbu ko'rsatkich 28,3 s/ga ni tashkil etganligi aniqlandi.

Dissertatsiyaning **“Introduksiya qilingan soya nav namunalari, mahalliy navlar hamda ular asosidagi oilalarning biokimyoviy tahlil natijalari”** deb nomlangan **IV bobida** introduksiya qilingan soya nav namunalari, mahalliy navlar hamda ular asosidagi oilalarning urug'laridagi oqsil va moy miqdori tahlili keltirilgan. Soya urug'ining oqsil va moy miqdorini oshirishda Seleкта 302 va Nafis navlaridan, oqsil miqdorini oshirishda Seleкта-201, Seleкта-302, Nafis, Baraka navlaridan, moy miqdorini oshirishda Seleкта 302, Liniya, Nafis navlaridan genetik-seleksion tadqiqotlarda foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, ajratib olingan soya oilalarining donini biokimyoviy tarkibi oqsil miqdori 40 % (O-3/6, O-2/6) dan 42 % (O-5/6) gachani tashkil etib, andoza navda ushbu ko'rsatkich 38 % ga teng bo'ldi (2-jadvalga qarang).

2-jadval

Soyaning ajratib olingan oilalarida urug'larini biokimyoviy tarkibi


№	Soya nav namunalari	miqdori, (%)		
		oqsil	moy	oqsil+moy
		M±m	M±m	
1.	O-17/20	40,00±0,29	19,05±0,19	59,05±0,56
2.	O-5/6	40,00±0,30	20,19±0,25	60,19±0,46
3.	O-11/6	40,00±0,42	19,69±0,35	59,69±0,68
4.	O-7/6	40,00±0,39	20,76±0,12	60,76±0,38
5.	O-3/6	42,00±0,39	17,66±0,22	59,66±0,58
6.	O-2/6	41,00±0,35	17,64±0,23	58,64±0,54
7.	Orzu (st)	38,03±0,15	18,62±0,25	56,65±0,35

Moy miqdori esa 17 % (O-5/6) dan 20,76 % (O-2/6) gacha, andoza navda 18, 62 % ga teng bo'ldi. O'z navbatida bu o'rinda tabiatan teskari korrelyativ bog'liqlik kuzatilib, O-5/6 yuqori oqsil (42 %) hisobiga moy miqdorining birmuncha

kamayganligi, ya'ni 17,66 % bo'lganligi qayd etildi. Oilalar orasidan O-5/6 va O-11/6 oilalarini oqsil miqdorini yaxshilashda, O-2/6 oilasini moy miqdorini yaxshilashda genetik-seleksion tadqiqotlarda foydalanish maqsadga muvofiqligi xulosa qilingan.

Tadqiqotlar davomida soya kolleksiya nav namunalari, mahalliy navlar hamda ular asosidagi oilalarda urug'larining oqsil tarkibidagi almashinmaydigan aminokislotalar tahlili keltirilib, urug'lari tarkibidagi oqsil va almashinmaydigan aminokislotalar miqdori boshqa nav-namunalarga nisbatan yuqoriligiga ko'ra, barcha oilalarning o'rtacha oqsilli darajadan yuqori bo'lgan ashyolar sifatida ajratib olindi va ulardan don sifatini yaxshilashda genetik-seleksion izlanishlarda foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi; soya urug'i tarkibidagi oqsil miqdori almashinmaydigan aminokislotalar miqdoriga to'g'ri korrelyativ bog'liq bo'lib, oqsil miqdori yuqori bo'lganda almashinmaydigan aminokislotalar miqdori ham oshib borganligi aniqlandi. Yuqorida keltirib o'tilgan kolleksiya nav-namunalaridan o'rtacha oqsilli darajadan yuqori bo'lgan soya navlarini yaratishda boshlang'ich ashyo sifatida foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Introduksiya qilingan soya nav namunalari, mahalliy navlar hamda ular asosidagi oilalarning klasterli tahlil natijalariga ko'ra, ajratib olingan oilalar va andoza Orzu navining morfo-xo'jalik belgilari bo'yicha klasterli tahlili o'tkazildi. Ushbu oilalarning o'simlik barglarini shakli va tuklar soni, dukkak ranggi va dukkak tuklarining soni tahlil qilinib, oilalarning tukligiga hisobiga laboratoriya tahlillariga asosan qurg'oqchilikka bardoshlilik bo'yicha baholangani holda, aniqlanib statistik tahlil qilindi.



1-rasm. Soya oilalarining morfo-xo'jalik belgilar bo'yicha klaster dendrogrammasi


Ajratib olingan oilalar belgilarining o'xshashlik darajasiga ko'ra, guruhlarga birlashtirildi va belgilar majmuasi (barg shakli, o'ng barg bo'yi va eni, chap barg bo'yi va eni, o'rta barg bo'yi va eni, band uzunligi; dukkak bo'yi va eni, rangi, tukining rangi va soni) bo'yicha eng o'xshash beshta asosiy klasterlarni shakllantirish va ularni qiyosiy baholash amalga oshirildi.

Oilalarning morfoxo'jalik belgilari bir-biriga yaqinligi va ular orasidagi yuqori polimorfizm bu nav namunalarning genetik jihatdan yaqinligini tahlil qilish imkoniyatini bermaydi. Biroq, o'simlik miqdoriy belgilarini aniqlash uchun ikkitadan ko'p populyatsiya olingan bo'lsa, u holda genotiplarni bir-biriga qanchalik yaqinligiga ko'ra, guruhlarga ajratish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu vazifani ma'lum darajada hal qilish uchun klasterli tahlildan foydalanish maqsadga muvofiq.

Introduksiya qilingan soya nav namunalari, mahalliy navlar hamda ular asosidagi oilalarning elektroforez tahlili natijalari Tadqiqotlarimizda oqsilning elektroforez tahliliga ko'ra, belgilar bo'yicha polimorfizm kuzatildi.

Elektroforez tahliliga ko'ra, oqsil zarrachalari alfa (α), beta (β), gamma (γ) hududlarda joylashadi. Rasmdan ko'rinib turibdiki, oqsil zarrachalari hajmi bo'yicha yiriklari tepada, maydalari pastda joylashgan. Tahlillarda polimorfizm kuzatilib, o'rganilayotgan nav namuna va duragaylarning belgi-xususiyatlari turli-tumanligidan dalolat beradi.

2-rasmga ko'ra, oqsil miqdori tahliliga ko'ra, O-17/20 - 10-belbog'; O-5/6 - 2-belbog'; O-7/6- 1-belbog'; O-3/6 9-belbog'; O- 11/6-belbog duragaylarda oqsil zarrachalarining gamma (γ) hududlarda joylashganligini, ya'ni polimorfizm aniqlanganligini ta'kidlab o'tish mumkin. Rasmga ko'ra, 4 -oila, ya'ni O-3/6 da oqsil miqdorining boshqa oilalarga nisbatan yuqoriligidan dalolat berib turibdi. Bu esa Infraskan-3150 qurilmasida o'lchaganimizda ham o'z isbotini topgan, bunda 42 % oqsil miqdori aniqlangan.



2-rasm. Ajratib olingan soya oilalarining elektroforez tahlili

Krasnodar va mahalliy seleksiyaga oid nav-namunalari orasida oqsil miqdori bo'yicha O-5/6, O-7/6, moy miqdorini oshirishda O-11/6 oilasidan, shuningdek, genetik-seleksion tadqiqotlarda foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Introduksiya qilingan nav namunalarning xo'jalik belgilari bo'yicha klasterlarga ajralish o'rtacha ko'rsatkichlari tahlillari, elektroforez tahlillari bir-birini tasdiqlagani holda oqsil miqdori yuqori, qurg'oqchilikka bardoshlilik bo'yicha ajratib olish imkoniyatini berdi. Elektroforez tahlillariga ko'ra, polimorfizm kuzatilib, o'rganilayotgan nav namuna va duragaylarning belgi-xususiyatlari turli-tumanligidan dalolat beradi.

Shunga ko'ra, oqsil zarrachalarining gamma (γ) hududlarda joylashganligi, polimorfizmning qayd etilganligi, belgilar bo'yicha turli-tumanlik aniqlanganligini namoyon bo'ldi. Bu esa ajratib olingan nav namunalardan belgilarni yaxshilashda boshlang'ich ashyo sifatida foydalanish maqsadga muvofiqdir.

“Soya navlari, nav namunalari va ularning kasallik, zararkunandalarga bardoshlilik xususiyatlari” deb nomlangan 4.6-qismda soya navlari, nav namunalari va soya oilalarida kasallik va zararkunandalarga bardoshliliigi o'rganildi. Soya duragaylari va ularning kasallik, zararkunandalarga bardoshlilik xususiyatlari bo'yicha soyaning turli duragay oilalari kasallik (soya mozaykasi) va zararkunandaga (o'rgimchakkana) bardoshlilik darajasi bo'yicha baholandi va bu jadval tarzida keltirib o'tildi.

3-jadval

Soya navlari, nav namunalari va ularning o'rgimchakkanaga bardoshliliigi

Soya navlari va oilalari	bardoshlilik (%)
Arletta	75
Selekta-201	80
Selekta-302	82
Liniya	70
Nafis	78
Baraka	85
Madina	76
Parvoz	73
O-5/6	90
O-11/6	92
O-3/6	88
O-2/6	89
O-17/20	95
O-7/6	87
Orzu (st)	74

3-jadvalda soya ekinining Krasnodardan introduksiya qilingan nav namunalari orasidan Seleкта 302 (72 %) nav namunasining, mahalliy navlardan Baraka (75 %) o'rgimchakkanaga nisbatan bardoshlilik qayd etildi. Oilalar orasida esa O-17/20 (82 %), O-5/6 (80 %) oilalarining o'rgimchakkanaga nisbatan bardoshlilik namoyon bo'ldi. Orzu navida ushbu kasallikka bardoshlilik tuproq-iqlim sharoitidan kelib chiqqan holda tajribalarimizda 74 % ni tashkil etdi.

Ajratib olingan soya oilalarining soya mozaykasi virusi bilan zararlanish darajasi bo'yicha O-17/20 va O-5/6 oilalari nisbatan bardoshlilikni namoyon qildi. O-11/6, O-7/6, O-3/6 va O2/6 oilalarida ushbu kasallikka o'rtacha bardoshlilik qayd etildi.

Soya duragaylari va ularning kasallik, zararkunandalarga bardoshlilik xususiyatlari bo'yicha soyaning turli duragay oilalari kasallik (soya mozaykasi) va zararkunandaga (o'rgimchakkana) bardoshlilik darajasi bo'yicha baholandi va bu jadval tarzida keltirib o'tildi. Yuqoridagi zararkunanda va kasallikdan tashqari, fuzarioz, septorioz, peronosporioz, bakterioz, shira va tripsga bardoshlilik darajasi baholandi. O'rganilgan soya oilalarining turli kasallik va zararlanish darajasiga ko'ra, fuzarioz bilan zararlanishi 10 % (O-17/20) dan 14 % (O-3/6, O-2/6) gacha, andoza navda esa 15 % (Orzu) zararlanganligi, bardoshlilik indeksi esa bu o'rinla o'rganilgan oilalarda 1,36 (O-3/6) dan 1,90 (O-17/20) gacha bo'lganligi qayd etildi. Septorioz bilan zararlanishda esa 9 % (O-17/20) dan 12 % (O-3/6, O-2/6) gacha, bardoshlilik indeksi 1,50 (O-3/6, O-2/6) dan 2,0 (O-17/20) gacha bo'lganligi namoyon bo'ldi. Bakterioz bilan zararlanish darajasi 8 % (O-17/20) dan 11 % (O-11/6, O-7/6) gacha, andoza navda esa 10 % zararlanish kuzatilib, bardoshlilik indeksi esa 1,55 (O-3/6, O-2/6) dan 2,13 (O-17/20) gacha bo'lganligi kuzatildi. Peronosporoz bilan zararlanish 7 % (O-17/20) dan 9 % (O-5/6) gacha, bardoshlilik indeksi 1,66 (O-2/6) dan 2,29 (O-17/20) gacha, shira bilan zararlanish 8 % (O-17/20) dan 11 (O-2/6) % gacha andoza navda esa 9 % zararlanish kuzatilib, bardoshlilik indeksi 1,60 dan 2,25 gacha bo'lganligi namoyon bo'ldi. Trips bilan zararlanish 9 % (O-17/20) dan 11 % (O-11/6, O-7/6, O-3/6) gacha, bardoshlilik indeksi 1,8 (O-11/6, O-7/6, O-3/6) dan 2,2(O-17/20) bo'lganligi qayd etildi. Andoza navda trips bilan zararlanish darajasi 11 %, bardoshlilik indeksi 1,91 bo'lganligi namoyon bo'ldi.

Demak, o'rganilgan oilalarning keltirilgan kasalliklarga nisbatan bardoshli ekanligi qayd etildi.

Dissertatsiyaning **V bobida "Seleksion ko'chatzordagi tadqiqot natijalari va ularning tahlili"** keltirgan. Ajratib olingan oilalarning seleksion ko'chatzordagi ko'rsatkichlari, soya duragaylari va ularning kasallik, zararkunandalarga bardoshlilik xususiyatlari, soya oilalarining ayrim qimmatli xo'jalik belgilari orasidagi korrelyativ bog'liqliklar, soyaning yaratilgan tizmalarini qimmatli xo'jalik belgilar bo'yicha ko'rsatkichlari, soyaning yaratilgan tizmalarining qimmatli xo'jalik belgilar bo'yicha ko'rsatkichlari, soyaning yangi yaratilgan tizmasining iqtisodiy samaradorligi va qimmatli xo'jalik belgilar bo'yicha ko'rsatkichlari keltirib o'tildi.

Yaratilgan yangi T-6 tizmasining soya navining iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari shuni ko'rsatdiki, 4-jadval ma'lumotlariga ko'ra, yalpi hosil yaratilgan navda 35,3 s/ga, andoza navda 29,4 s/ga ni tashkil etib, 5,9 s/ga ustunligi qayd etildi. Yalpi daromad esa T-6 tizmasidan gektaridan 14120000 so'mni tashkil etgan bo'lsa,

andoza Orzu navida 11760000 so‘mga teng bo‘lib, 2360000 so‘m yuqori bo‘ldi. Jami xarajatlar Orzu navida 9295000 so‘m/ga, Orzu navida 9287000 so‘m/ga teng bo‘lib, sof foyda T-:navida 4825000 so‘m/ga, Uzbekskaya 2 navida 2473000 so‘m/ga qayd etildi.

Bir kg urug‘ tannarxi andoza navda 3158,8 so‘m/kg, T-10 tizmasida esa 2633,1 so‘m/kg ni tashkil etdi. Rentabellik darajasi yaratilgan T-10 navda 51,9 % bo‘lsa, Orzu navida 26,6 % ni tashkil etdi.

Demak, yaratilgan T-10 navining iqtisodiy samaradorligi Orzu navidan ustun ekanligi qayd etildi. Bugungi kunda soyaning T-10 tizmasida navi urug‘larini ko‘paytirish va navdorligini oshirish uchun birlamchi urug‘chilik ishlarini olib borish maqsadga muvofiqdir.

4-jadval

Soyaning iqtisodiy samaradorligi

Soya nav namunalari	Yalpi hosil, s/ga	Yalpi daromad, so‘m/ga	Jami xarajatlar, so‘m/ga	Sof foyda, so‘m/ga	1 kg urug‘ tannarxi so‘m/kg	Rentabellik darajasi, %
T-10	38,3	14420000	9298000	4835000	2633,1	52,8
Orzu (st)	30,4	11860000	9297000	2483000	3159,8	27,5

Soya o‘simligining T-10 navini botanik ta’rifi *Glycini max (L.) merr.* Nav sintetik seleksiya yo‘li bilan juft duragaylash usulida yaratilgan. Krasnodardan introduksiya qilingan nav namunalarni juft chatishtirish orqali yaratilgan. Navning kelib chiqishi T-10-F₄Nafis x Selekt302], sinonimi O-5/6 hisoblanadi.

Oilalarda bir o‘simlikdagi dukkaklar sonini yaxshilashda O-3/6, O-5/6 oilalaridan genetik-seleksion tadqiqotlarda foydalanish maqsadga muvofiqligi, bir tup o‘simlikdagi urug‘ vazni bo‘yicha yuqori ko‘rsatkich qayd etilgan O-3/6, O-2/6 oilalaridan belgini yaxshilashda genetik-seleksion tadqiqotlarda foydalanish, pastki dukkaklar joylashuvi bo‘yicha O-3/6 oilasidan, 1000 dona urug‘ vaznini yaxshilashda O-2/6 va O-3/6 oilalaridan, bir tup o‘simlikdagi urug‘ soni O-3/6, O-17/20 va O-5/6 oilalaridan belgilarni yaxshilashda genetik-seleksion izlanishlarda foydalanish maqsadga muvofiqligi keltirilgan. 1000 dona urug‘ vazni bo‘yicha O-2/6 va O-3/6 oilalari ustunligi qayd etildi. Belgilarning korrelyativ bog‘liqlariga ko‘ra, oilalarda oqsil miqdori va hosildorlik, oqsil miqdori va moy miqdori orasidagi o‘zaro korrelyativ bog‘liqligi shuni ko‘rsatdiki, O-11/6 va O-3/6 oilalaridan bir paytning o‘zida har uchala belgini yaxshilashda seleksion ashyo sifatida foydalanish maqsadga muvofiqligi keltirilgan.

Soyada oqsil va moy miqdorini yaxshilashda kuchli ijobiy darajadagi bog‘liqlikni tashkil etgan oila O-3/6 bilan bir qatorda, o‘rta darajadagi ijobiy bog‘liqliklarga ega bo‘lgan O-11/6, O-5/6 va O-2/6 hamda o‘rta darajada bog‘liqlikka ega seleksion jarayonlarda foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Yaratilgan yangi nav o‘rganilgan barcha qimmatli xo‘jalik belgilari bo‘yicha andoza Uzbekskaya 2 navidan ustunligi qayd etildi. Yaratilgan T-6, T-8, T-10 tizmalaridan soyaning yangi navlarini yaratishda genetik-seleksion izlanishlarda yangi donorlar sifatida foydalanish uchun tavsiya etiladi. Bugungi kunda T-6 tizmaning

Qashqadaryo viloyatida urug'liklari ko'paytirilmoqda. Yaratilgan T-6 tizmasining iqtisodiy samaradorligi Orzu navidan ustun ekanligi qayd etildi. Bugungi kunda soyaning T-6 navi urug'larini ko'paytirish va navdorligini oshirish uchun birlamchi urug'chilik ishlarini olib borish maqsadga muvofiq.

XULOSALAR

1. Krasnodar seleksiyasiga mansub intruduksiya qilingan soya nav namunalarining tuproq va iqlim sharoitlariga yaxshi moslashganligi, morfologik va xo'jalik belgilari tahlil qilinib, ulardan genetik-seleksion jarayonlarda qo'llanilish imkoniyatlari baholandi.

2. Intruduksiya qilingan nav namunalar asosida juft duragaylash orqali olingan oilalarda bir o'simlikdagi dukkaklar soni bo'yicha O-17/20, O-3/6, O-5/6 oilalari, bir tup o'simlikdagi urug' vazni bo'yicha O-3/6, O-2/6 oilalari, pastki dukkaklar joylashuvi bo'yicha O-3/6 oilasidan, 1000 dona urug' vazni bo'yicha O-2/6 va O-3/6 oilalari, bir tup o'simlikdagi urug' soni bo'yicha O-3/6, O-17/20 va O-5/6 oilalari, oqsil miqdori bo'yicha O-5/6, O-7/6, moy miqdorini oshirish bo'yicha O-11/6 oilasi, turli kasalliklar va zararkunandalarga bardoshlilik bo'yicha O-17/20, O5/6, O-3/6, O-7/6 oilasi yuqori ustunlikka ega ekanligi qayd etildi.

3. Belgilarning korrelyativ bog'liqlariga ko'ra, oilalarda oqsil miqdori va hosildorlik, oqsil miqdori va moy miqdori orasidagi o'zaro korrelyativ bog'liqligiga ko'ra, O-11/6 va O-3/6 oilalaridan bir paytning o'zida har uchala belgini yaxshilashda seleksion ashyo sifatida foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

4. Soyada oqsil va moy miqdorini yaxshilashda kuchli ijobiy darajadagi bog'liqlikni tashkil etgan oila O-3/6 bilan bir qatorda, o'rta darajadagi ijobiy bog'liqliklarga ega bo'lgan O-11/6, O-5/6 va O-2/6 hamda o'rta darajada bog'liqlikka ega seleksion jarayonlarda foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

5. Soyaning ajratib olingan oilalarini morfologik xususiyatlariga ko'ra klasterlarga ajratish va ularning genetik xususiyatlarini tahlil qilish orqali seleksion qiymati aniqlandi.

6. Elektroferez tahlillariga ko'ra, soya oilalari polimorfizm kuzatilib, genetik xilma-xilligi aniqlanib, ular asosida yaratilgan T-6, T-8 va T-10 tizmalari yuqori barqarorlik va yuqori sifat ko'rsatkichlariga ega bo'lganligi tasdiqlandi.

7. T-6, T-8 va T-10 tizmalari yuqori hosildorlik ko'rsatkichlari, oqsil va moy miqdori yuqoriligi, mexanizatsiyaga mos, kasalliklarga chidamlilikka ega bo'lib, soya ekinlarini iqtisodiy jihatdan samaradorlik imkonini beradi.

8. Sintetik seleksiya usuli bilan yaratilgan T-6 tizmasining maksimal hosildorligi 32 s/ga, vegetasiya davri 112-114 kun, pastki dukkaklarning joylashishi esa 13,0-14,0 sm baland, 1000 dona don vazni 150-160 g, oqsil miqdori 41 %, moy miqdori 21,5 %; T-8 tizmasining maksimal hosildorligi 30,5 s/ga, vegetatsiya davri 115-116 kun, pastki dukkaklarning joylashishi 15,0-16,0 sm, 1000 dona don vazni 160-170 g, oqsil miqdori 42 %, moy miqdori 21,6 %, dukkaklari chatnab ketmasligi qayd etildi.

9. T-6 tizmasining iqtisodiy samaradorligi 30,8-35,6 %, T-8 tizmasining iqtisodiy samaradorligi 25,7-30,8 %ni tashkil etib, yuqori iqtisodiy rentabellikni ko'rsatadi.

10. Yangi yaratilgan T-6, T-8 va T-10 tizmalari yuqori hosildorlik, kasalliklarga chidamlilik va tuproq-iqlim sharoitlariga moslashganlik xususiyatlariga ko'ra, soya hosilini va sifatini oshirishda yangi imkoniyatlar yaratadi.

11. T-6, T-8 va T-10 tizmalarining majmui qimmatli xo'jalik va texnologik sifat ko'rsatkichlarining yuqoriligi hamda ulardan genetik-seleksion izlanishlarda yangi donorlar sifatida foydalanish hamda original urug'larining ko'paytirilishi tavsiya etiladi.

12. Soyaning soyaning hosildorligi, oqsil va moy miqdori yuqori, dukkagi chatnab ketmaydigan, mexanizatsiyaga moslashgan yangi T-10 tizmasini urug'larini ko'paytirish va navdorligini oshirish uchun dastlabki urug'chilik ishlarini olib borish maqsadga muvofiq.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ 05/30.09.2022.Qx.152.01
ПО ПРИСВОЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ (PhD) ПРИ НАУЧНО-
ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОМ ИНСТИТУТЕ ОВОЩЕ-БАХЧЕВЫХ
КУЛЬТУР И КАРТОФЕЛЯ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ САМАРКАНДСКОГО
ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА ВЕТЕРИНАРНОЙ
МЕДИЦИНЫ, ЖИВОТНОВОДСТВА И БИОТЕХНОЛОГИЙ**

ЭРКАЕВА САОДАТ АБДИНАЙИМОВНА

**СОЗДАНИЕ ВЫСОКОУРОЖАЙНЫХ, УСТОЙЧИВЫХ К
БОЛЕЗНЯМ И ВРЕДИТЕЛЯМ СИСТЕМ НА ОСНОВЕ
ИНТРОДУЦИРОВАННЫХ СОРТОВ СОИ**

06.01.05 – Селекция и семеноводство

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫМ НАУКАМ**

ТАШКЕНТ – 2025

Тема диссертации зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под № B2025.2.PhD/Qx11677

Диссертация на соискание ученой степени доктора философии (PhD) выполнена в Ташкентском филиале Самаркандского государственного университета ветеринарной медицины, животноводства и биотехнологий.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекский, русский, английский) на официальной веб-странице Научного совета (www.tsau.uz) и на портале информационного образования «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный консультант: Холмуродова Гузал Рузиевна
доктор сельскохозяйственных наук, профессор

Официальные оппоненты: Иброхимов Баходир Акмал угли
доктор сельскохозяйственных наук (DSc),
старший научный сотрудник
Матниязова Хилола Худайбергенована
доктор биологических наук (DSc), профессор

Ведущая организация: Научно-исследовательский институт зерновых и зернобобовых культур

Защита диссертации состоится «27» октябрь 2025 года в 16:00 часов на заседании Научного совета PhD.05/30.09.2022.QX.152.01 при Научно-исследовательском институте овоще-бахчевых культур и картофеля. (Адрес: 111106, Ташкентская область, Ташкентский район, а/б Куксарой НИИОБКиК. Тел.:(+99871)226-85-03; факс:(+99871) 226-85-03; e-mail:savzavot_info@umail.ru.

